

**O'ZBEKISTONDA OZIQ – OVQAT XAFSIZLIGINI TA'MINLASHNING
IJTIMOI EKOLOGIK MUOMMOLARI****Normuratov Oybek Ulug'berdiyevich**

Termiz davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Ekologiya va tuproqshunoslik
kafedrası dotsenti, qishloq xo'jaligi fanlari doktori

Rahimqulova Husnora Xolmo'min qizi

Termiz davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Ekologiya va atrof muhit
muxofazasi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi 3- kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu Oziq-ovqat xavfsizligi iqtisodiyotning shunday holati bo'lib, ilmiy asoslangan ko'rsatkichlarga mos ravishda tibbiy me'yorlar darajasida iste'molni qondirish uchun shart-sharoit yaratilgan holda oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash hisoblanadi deb yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat mahsulotlari, oziq-ovqat, xomashyoni saqlash, o'rmonlarning kesilishi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholini ijtimoiy jihatdan himoyalash.

Аннотация: Продовольственная безопасность определяется как состояние экономики, обеспечивающее стабильное снабжение продуктами питания, при условии создания условий для удовлетворения потребления на уровне медицинских стандартов в соответствии с научно обоснованными показателями.

Ключевые слова: продукты питания, продукты питания, хранение сырья, вырубка лесов, социально-экономическое развитие, социальная защита населения.

Abstract: Food security is defined as a state of the economy that ensures a stable supply of food products, provided that conditions are created to meet consumption at the level of medical standards in accordance with scientifically based indicators.

Key words: food products, food products, storage of raw materials, deforestation, socio-economic development, social protection of the population.

Kirish. Yangi O'zbekistonni barpo etishda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish xizmatlari ko'rsatishning innovatsion jarayonlarini takomillashtirish ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda markaziy o'rinlardan birida turadi. Shu bois, "ichki bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirish va narxlar barqarorligin ta'minlash, oziq-ovqat mahsulotlari zaxirasini yaratish va ichki bozorda intervensiya qilish hajmlari, asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarini barqarorlashtirish





zaxiralarni shakllantirish va ulardan foydalanish qoidalarini ishlab chiqish”vazifasi qo’yilgan. Oziq-ovqat xavfsizligi iqtisodiyotning shunday holati bo’lib, ilmiy asoslangan ko’rsatkichlarga mos ravishda tibbiy me’yorlar darajasida iste’molni qondirish uchun shart-sharoit yaratilgan holda oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta’minlash hisoblanadi. Oziq-ovqat mahsulotlariga iqtisodiy jihatdan aholining barcha ijtimoiy qatlamlari etarli hajmda va sifatda ta’minlanishi mamlakatning har bir fuqarosi o’zining yoshi, mulkiy va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar oziq-ovqat mahsulotlarining minimal turkumiga ega bo’lishi uchun zarur miqdordagi daromadga ega bo’lishi lozimligini ifodalaydi. Bunday imkoniyat, sharoit aholining etarli daromad darajasini ta’minlash hamda oziq-ovqat mahsulotlarining maqbul narx darajasini nazorat qilish yo’li bilan vujudga keltiriladi.

Respublikaning ichki iste’mol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va nooziq-ovqat mollari asosiy turlari iste’molini muayyan darajada saqlab turish chora-tadbirlari ko’rilganligi aholini ijtimoiy jihatdan himoyalash va ularning turmush darajasini oshirishning ikkinchi eng muhim yo’nalishi bo’ldi. Islohotlar chuqurlasha borgan sari Respublika aholisi manfaatlarini himoya qilishning mutlaqo yangi tizimiga o’tish boshlandi. Bunda ichki narxlarni jahon narxlari darajasiga tez tenglashtirib olish va aholi daromadlarini shunga muvofiq ravishda oshirish yo’li bilan himoyalash chora-tadbirlari ko’rildi. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi «Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o’sishning yuqori sur’atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat byudjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo’lishini ta’minlash – eng muhim ustuvor vazifamiz»[1].

Oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasi birinchi bor 1974 yilda Jahon oziq-ovqat sammitida taklif qilingan bo’lib, “oziq-ovqat iste’molining barqaror o’sishini ta’minlash hamda ishlab chiqarish hajmi va narxlarning o’zgarishlarini qoplash uchun asosiy oziq-ovqatlarning dunyoda etarli jamg’armalari har doim mavjudligini” anglatadi. Keyingi yillarda oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi va to’yimlilik hamda shaxsiy hohishlarni ham inobatga olish maqsadida oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasi kengaytirildi. Oziq-ovqat xavfsizligi sohasida mavjud zamonaviy adabiyotda juda ko’p tushuncha va ko’rsatkichlar mavjud. Oziq-ovqat xavfsizligiga oid ko’p tushunchalar va ko’rsatkichlar mavjudligiga qaramay, mazkur g’oyaning o’ta muhimligini hamma e’tirof etgan. 1996 yilda Jahon Oziq-ovqat xavfsizligi sammiti oziq-ovqat xavfsizligini shart sifatida belgiladi: “...barcha odamlar o’z oziqlanish ehtiyojlari va shaxsiy hohishlariga binoan hamda faol va sog’lom hayotni ta’minlash uchun etarli miqdorda xavfsiz va to’yimli oziq-ovqat mahsulotlariga etarli va iqtisodiy jihatdan ega bo’la olishi”. 2001 yilda oziq-ovqat





xavfsizligi g'oyasiga moddiy va iqtisodiy imkoniyatdan tashqari ijtimoiy imkoniyat tushunchasi ham qo'shildi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Hozirgi FAO belgilagan tushuncha mazkur qo'shimcha jihatni quyidagicha aks ettiradi: "barcha odamlar o'z oziqlanish ehtiyojlari va shaxsiy hohishlariga binoan hamda faol va sog'lom hayotni ta'minlash uchun etarli miqdorda xavfsiz va to'yimli oziq-ovqat mahsulotlariga ega bo'lishi uchun jismonan, iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlari mavjudligi oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlandi deganidir"

Iqtisodiy imkoniyat aholining barcha ijtimoiy qatlamlari etarli miqdorda oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilishga qurbi etishini bildiradi. Boshqacha aytganda, iqtisodiy imkoniyat uy xo'jaliklar oziq-ovqat xaridi uchun etarli daromadga egaligi va mamlakat oziq-ovqat importi uchun etarli xorijiy valyutaga egaligini bildiradi.

Ijtimoiy imkoniyat madaniyat yoki dindan qat'iy nazar, butun aholi vdolatli ravishda oziqovqat bilan ta'minlanishini anglatadi. Foydalanish: muvofiq oziqlanish, toza suv, sanitariya va sog'liqni saqlash orqali oziq-ovqat iste'mol qilish bilan barcha fiziologik ehtiyojlar qondiriluvchi holatga etish. Biror ko'rsatkichga etishmaslik oziq-ovqat xavfsizligi darajasi pastligi yoki oziq-ovqat etishmasligiga olib keladi.

Oziq-ovqat etishmasligi shunday vaziyatki, aholi me'orda o'sish, rivojlanish hamda faol turmush tarzi uchun zarur bo'lgan xavfsiz va to'yimli oziq-ovqatlarni etarli miqdorda ololmaydi. Oziq-ovqat etishmovchiligi yoki oziq-ovqat xavfsizligi darajasi pastligi aholi orasida qoniqarsiz oziqlanishga olib kelib, u o'z navbatida odamlar, oilalar va butun xalq uchun jiddiy oqibatlariga olib keladi.

Milliy darajada oziq-ovqat xavfsizligiga darajasining tahlili **oziq-ovqat balansi** (OOB) da, ya'ni mamlakatda oziq-ovqat mavjudligida aks ettiriladi. OOB muayyan davrda mamlakatda oziqovqat ta'minoti va inson iste'moli uchun mavjud oziq-ovqat miqdori va ularning ozuqaviy qiymatiga oid statistik ma'lumotlarning hisob-kitoblarini ta'minlaydi. Oziq-ovqat balansida oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi va importga oid ma'lumotlar yig'ilgan bo'lib, mamlakatda oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sharoitini hamda mamlakat qay darajada importga qaramligini (importga qaramlik ko'rsatkichi) baholashga imkon beradi.

Tadqiqotning maqsadi. O'zbekistonda aholining oziq-ovqat hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarni to'la qondirish, oziq-ovqat bozoridagi barqarorlikni ta'minlash yo'lida faoliyat yuritadigan muhim tarmoq – agrar sohasida islohotlarni yanada chuqurlashtirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Oziq-ovqat xavfsizligi mamlakat aholisining asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan etarli darajada ichki imkoniyatlardan foydalangan holda ta'minlanishini, importga bog'liqlikni minimum darajasiga erishishni ifodalaydi.





Tadqiqot vazifalari. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun ikki yo'nalishda chora-tadbirlar amalga oshirildi:

✓ qishloq aholisi tomorqa maydonlarini kengaytirish va yangilarini ajratib berish;

✓ qishloq xo'jaligi ekinlari tarkibini qayta ko'rib chiqish. Davlatning oziq-ovqatga oid siyosati kartoshka, meva-sabzavot mahsulotlari bilan ham o'z-o'zini ta'minlashni ko'zda tutadi. Aholiga etarli darajada chorvachilik mahsulotlari va o'simlik yog'i etkazib berish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash uchun zarur bo'lgan bazani barpo etish, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari asosiy turlarining etarli zaxirasini shakllantirish, ularning chakana baholari barqarorligini ta'minlashga erishish, chetdan keltirilayotgan mahsulotlar hajmlarini qisqartirib borish kabilar ham oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning muhim yo'nalishlari hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligidagi innovatsion jarayon - bu ilmiy ishlanmalarga asoslangan muayyan seleksion, agrokimyoviy, texnik va texnologik g'oyalarni yangi navlarga, gibridlarga, qoramol zotlariga, kimyoviy yoki biologik preparatlarga, texnologiyalar va uning ayrim tarkibiy qismlariga aylantirish va ularni bevosita ishlab chiqarishda qo'llashning yagona va uzluksiz oqimidir [2].

Oziq-ovqat xavfsizligi zamonaviy ekologik va tabiiy iqlim sharoitlariga moslashtirilgan ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish bilan barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish orqali qo'llab-quvvatlanadi.

FAOning oziq-ovqat tizimini o'zgartirish muammolari, shu jumladan uning ijtimoiy va ekologik muammolarini hal qilish borasidagi qo'llab-quvvatlashini ta'kidlash o'ta muhimdir. FAO qishloq xo'jaligi va qishloq hududlarini rivojlantirishning keng ko'lamdagi masalalari bo'yicha texnik ekspertiza va bilim almashishni ta'minlaydi. Xususan, bularga erdan barqaror foydalanish va uning tartibi, suv resurslarini boshqarish, qishloq xo'jaligi ekinlarini diversifikatsiya qilish, chorvachilik hamda iqlimga moslashtirilgan qishloq xo'jaligi usullarini joriy etish kiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki. Bizningcha, yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlarga asosan, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida quyidagi yo'nalishlarda iqtisodiy faoliyat yuritish maqsadga muvofiq bo'ladi: - aholining barcha ijtimoiy guruhlari uchun oziq-ovqatga iqtisodiy jihatdan erishishni ta'minlash sohasida aholi daromadlarini oshirish imkoniyatlarini yaratish, kambag'allik va qashshoqlik darajasini kamaytirish, ijtimoiy jihatdan kam ta'minlangan aholi ustuvor ravishda qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish; - oziq-ovqatga jismoniy jihatdan erishishni ta'minlash maqsadida avvalom bor, qishloq va baliqchilik xo'jaliklarini,



oziq-ovqat va qayta ishlash sanoati hamda agrosanoat majmuasining boshqa tarmoqlarini, shuningdek, oziq-ovqat va xomashyoni saqlash, transport hamda ulgurji va chakana savdo, umumovqatlanish infratuzilmasini jadal rivojlantirish, oziq-ovqat mahsulotlari bilan o'zini etarli darajada ta'minlay olmaydigan hududlarni qo'llab-quvvatlash, mamlakatda butunlay yoki etarli darajada ishlab chiqarilmaydigan oziq-ovqat mahsulotlarini maqbul miqdorda import qilish; - oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini oshirish va xavfsizligini ta'minlash sohasida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash, tashish, qayta ishlash va realizatsiya qilish, aholi iste'molining barcha bo'g'inlarida ularning sifatini va xavfsizligini nazorat qilish, iste'molchilar huquq va manfaatlarini himoya qilish, aholining ovqatlanish madaniyatini oshirish chora-tadbirlarini amalga oshirish; - oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashni boshqarish va tartibga solish maqsadida institutsional o'zgarishlarni amalga oshirish, bu borada davlat boshqaruvi organlarining vakolatlari hamda ma'suliyatini qat'iy belgilash, mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy, dastaklaridan unumli foydalanish.

O'zbekistonning iqlim o'zgarishiga nisbatan zaifligini hisobga olib, FAO mamlakatning iqlimga chidamli qishloq xo'jaligi usullarini rivojlantirishida yordam bermoqda. Bu, o'z ichiga qurg'oqchilikka chidamli qishloq xo'jaligi ekinlarini taklif qilish, samarali sug'orish usullari va bir vaqtning o'zida atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish bilan birga hosildorlikni oshirish uchun iqlimiy optimallashtirilgan qishloq xo'jaligi usullarini oladi. FAO O'zbekiston bilan ekologik muammolarni, jumladan cho'llanish, o'rmonlarning kesilishi va suv tanqisligini hal etishda hamkorlik qilmoqda. Shuningdek, u mintaqadagi davlatlar o'rtasida innovatsion qishloq xo'jaligi usullarini joriy etish, texnologiyalar va tadqiqot natijalari almashinuviga ham yordam beradi [3].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmon bilan tasdiqlangan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning Oliy majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi nutqi. // Xalq so'zi, 2016-yil 9-sentyabr.

Iqtisodiy xavfsizlik. L.N.Xalikova, B.A.Iskandarov. Samarqand-2023

3. Agrar siyosat va oziq-ovqat xavfsizligi. D.N.Saidova, I.B.Rustamova, Sh.A.Tursunov. Toshkent-2016

4. Atrof-muhit holati to'g'risida milliy ma'ruza: O'zbekiston. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi. 2023-yil dekabr.

